

"Yashil tashabbus" ekologik aksiyasi

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Yurtimizda iliq havo, bahor kunlari yaqinlashmoqda, bu ayniqsa, respublikamizning janubiy Qashqadaryo viloyatida har yilgidek bahor erta kirib kelishi kuzatiladi. Ushbu kunlar - atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirish, daraxt ko'chatlarini o'tkazishning ayni vaqt.



TIQXMMI Qarshi filiali professor-o'qituvchilari va bir guruh tashabbuskor talabalari ishtirokida "Yashil tashabbus" ekologik aksiyasi bo'lib o'tmoqda. Aksiya davomida filial hududini obodonlashtirish maqsadida gul ko'chatlari, mevali va manzaralni daraxt ko'chatlari ekilmoqda.



Tadbirda ayniqsa, "Umumtexnik fanlar" kafedrasi o'qituvchilari N. Amirqulova va M. Aralovalar katta tashabbus ko'rsatishmoqda. Aksiyada faol ishtirok etgan talabalar rahbariyat tomonidan minnatdorchilik bildirilib tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar. Eko-aksiya hafta mobaynida davom etadi.

TIQXMMI matbuot xizmati